



IMOM BUXORIY VA UNING HADIS TO‘PLASHDAGI ME’ZONLARI

Oxunova Mubina Erkinjon qizi

CHDPU O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada hadis ilmining yetuk allomasi Imom Muhammad ibn Ismoil Buxoriy va uning hadis to‘plashda qo‘llagan mezonlari tahlil qilinadi. Imom Buxoriy hadisni sahih deb qabul qilish uchun roviyningadolati va zabitini, sanad uzluksizligini, hadislarga amal qilinayotganligini va rivoyatning xatolardan xoli bo‘lishini qat’iy shart qilgan. Maqolada ushbu mezonlar asosida “Sahih al-Buxoriy” asarining yuksak ilmiy va axloqiy qadriyati yoritiladi. Shuningdek, Imom Buxoriyning hadis olishdagi ehtiyyotkorligi, taqvosi va ilmiy halolligi bugungi musulmonlar uchun ibrat sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Imom Buxoriy, Sahih al-Buxoriy, Hadis ilmi, Hadis tanlash mezonlari, Roviyadolati, Roviy zabi, Ittisolu sanad, Ilmiy halollik, Taqvo va ehtiyyotkorlik, Islomiy manbashunoslik.

ABSTRACT: This article analyzes the great scholar of hadith, Imam Muhammad ibn Ismail al-Bukhari, and the criteria he used in collecting hadith. Imam Bukhari strictly stipulated the fairness and accuracy of the narrator, the continuity of the chain of transmission, the adherence to the hadith, and the absence of errors in the narration in order to accept a hadith as authentic. Based on these criteria, the article highlights the high scientific and moral value of the work “Sahih al-Bukhari”. In addition, Imam Bukhari’s caution, piety, and scientific honesty in collecting hadith are evaluated as an example for today’s Muslims.

Keywords: Imam Bukhari, hadith science, authentic hadith, criteria for narration, isnad, fairness of narrator, hadith text, al-jame’ as-sahih, method of collecting hadith, reliable narrator.

KIRISH



Islom dini faqat aqidaviy emas, balki amaliy hayotni ham mukammal tarzda tartibga soluvchi yuksak tafakkur asosidir. Ushbu dinning nazariy va amaliy manbalari ikki asosiy ustunga — Qur’oni karim va Rasululloh Muhammad (s.a.v.)ning sunnatlariga tayanadi. Sunnatning asosiy manbai bo‘lgan hadislar orqali musulmon kishining hayoti, ijtimoiy munosabatlari va ma’naviy qadriyatlari shakllanadi. Shu sababli hadis ilmi islom ilmlarining eng murakkab, ammo eng ishonchli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Payg‘ambarimiz (s.a.v.) vafotidan keyingi asrlarda hadislar og‘zaki rivoyat asosida yoyilgani sababli, ularning sahih va zaif turlari ajralib chiqdi. Shubhali rivoyatlar, bid‘atga moyil uydirma gaplar ham jamoa orasida tarqalib ketdi. Bunday vaziyatda hadislarni ilmiy asosda tekshirish, aniqlash va to‘g‘ri shaklda yozib olish muhim vazifa bo‘lib qoldi. Aynan shu davrda Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy hadis ilmining eng buyuk yulduzi sifatida tarix sahnasiga chiqdi.

Imom Buxoriy nafaqat minglab hadislarni yod olgan, balki ularni tanlashda eng qat’iy ilmiy va axloqiy mezonlarni belgilagan allomadir. Uning “Al-Jome’ as-Sahih” asari hadis tanqidchilik tarixida yangi sahifa ochdi: bu asarda faqat isnod (roviyalar zanjiri) ishonchli bo‘lgan hadislar emas, balki matni, rivoyatchining axloqi, xotirasi, amal qilinishi va hatto shaxsiy hayoti sinchiklab tahlil qilingan. Shu bois ulamolar bu asarni “Qur’ondan keyin eng ishonchli kitob” deya e’tirof etishgan.

Ushbu maqolada Imom Buxoriyning hadis tanlashdagi asosiy ilmiy mezonlari, roviylarga bo‘lgan munosabati, zanjir uzluksizligiga qo‘ygan talablar, matn tahliliga yondashuvi hamda shaxsiy taqvo asosida olib borgan ilmiy faoliyati mufassal yoritiladi.

Imom Buxoriy hadislarni to‘plashda qat’iy mezonlarga amal qilgan. Quyida u kishining asosiy ilmiy yondashuvlari manbalar asosida tahlil qilinadi.

1. Roviyning adolati va halolligi – asosiy shart

Imom Buxoriy hadisni qabul qilishdan avval roviyning nafaqat ilmiy salohiyatiga, balki uning axloqiy pokligi, rostgo‘yligi va taqvosiga alohida e’tibor bergen. Agar roviy yolg‘onchilikda yoki ishonchsiz muomalada gumon qilinsa, Imom Buxoriy uning hadisini rad etgan.



Masalan, “Siyar A‘lam an-Nubala” asarida keltirilishicha, bir kishining otini aldab o‘ziga yaqinlashtirganini ko‘rgan Imom Buxoriy u kishi haqida: “Bu inson hayvonga ham yolg‘on ishlatmoqda, men undan hadis olmayman”, deya uning hadisini yozib olmagan (Zahabiy, Siyar A‘lam an-Nubala, 12-jild, 439-bet). Bu voqealda hadis qabulida axloqiy mezonlar qanchalik muhim bo‘lganini ko‘rsatadi.

2. Roviyning xotirasi va ilmiy salohiyati

Hadisni eshitib, yodlab qolish va aynan o‘sha tarzda yetkazish — sahih hadisning muhim shartlaridan biridir. Imom Buxoriy roviyning xotira kuchini (zabt) sinab ko‘rgan, agar u rivoyatda chalkashsa yoki xotirasi zaif bo‘lsa, uning hadisini qabul qilmagan. Dr. Muhammad Mustafo Azamiy yozadi: “Imom Buxoriy roviylarning umrining oxirida zaiflashgan xotirasini inobatga olgan, hatto oldin sahih sanalgan rivoyatlarini ham qayta tahlil qilgan” (Manhaj al-Imom al-Buxoriy, 63-bet).

3. Sanad uzluksizligi (ittisolu sanad)

Imom Buxoriy hadis zanjiridagi har bir roviy avvalgisidan bevosita eshitgan va uchrashgan bo‘lishini shart qilgan. Bu “liqo” (uchrashuv) sharti bo‘lib, faqatgina bir davrda yashash emas, balki haqiqiy suhbat yoki ta’lim jarayoni bo‘lganini isbotlash talab etiladi. Ibn Hajar Asqaloniy “Nuhbatul Fikar” sharhida bu haqida shunday deydi: “Imom Buxoriy ittisolu sanadni nafaqat tarixiy, balki amaliy ravishda isbotlangan holatda qabul qilgan” (Nuhbatul Fikar, 21-bet).

4. Hadis matnining mantiqliligi va xatolardan holiligi

Imom Buxoriy hadisning isnodiga e’tibor berish bilan birga, uning matnini ham tahlil qilgan. Agar hadis matni Qur’on yoki sahih hadislarga zid bo‘lsa, mantiqsiz yoki shariatga to‘g‘ri kelmasa, bunday hadisni sahih deb bilmagan. Masalan, “Innamal a‘mālu bin-niyyāt” hadisini Sahihining birinchi o‘rniga qo‘yishi — niyat va amal birligini ta’kidlagan holda matnga yuksak ilmiy yondashuvini ko‘rsatadi (Sahih al-Buxoriy, 1-hadis).

5. Amal qilishga layoqatlilik

Imom Buxoriy hadis faqat nazariy emas, amalda ham hayotga tadbiq etilishi lozim deb hisoblagan. Shu sababli hadisni rivoyat qilgan roviy unga amal qilganmi, hayotida namuna bo‘ladimi — shularni hisobga olgan. O‘zbekiston musulmonlari



idorasi nashr qilgan “Imom Buxoriy” kitobida aytilishicha: “Imom Buxoriy hadis yozishdan oldin tahorat olib, ikki rakat namoz o‘qigan. U, faqat ilm emas, ruhiy tayyorgarlik va halollik bilan hadis yozgan” (Imom Buxoriy, Toshkent, 2001, 42–43-betlar).

6. Hadis to‘plashda tahorat bilan yozish va ma’naviy mas’uliyat

Imom Buxoriy hadis yozishda doimo tahorat bilan yurish, har bir hadis yozishdan oldin ikki rakat nafl namoz o‘qish odatini kiritgan. Bu holat uning hadisga bo‘lgan ixlosi, hurmati va ma’naviy mas’uliyatini ko‘rsatadi. Bu haqida shunday rivoyat bor:

“Imom Buxoriy ‘Al-Jome’as-Sahih’dagi har bir hadisni yozishdan avval g‘usl olib, ikki rakat namoz o‘qigan.”

(Imom Buxoriy, Mavarounnahr nashriyoti, 2001, 43-bet)

Bu jihat hadis to‘plashda faqat ilmiy mezon emas, balki ruhoniy tozalik va ixlos ham muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi.

XULOSA

Imom Buxoriy hadis ilmi sohasida chuqur bilim va mas’uliyat bilan ishlagan buyuk muhaddisdir. U hadislarni to‘plashda faqat roviyning musulmon bo‘lishi yoki nomining ma’lum bo‘lishi bilan cheklanib qolmagan. Aksincha, har bir rivoyatni chuqur tahlil qilib, roviyning halolligi, xotirasi, rivoyatdagi uzluksizlik va matnning mantiqiyligini alohida e’tiborga olgan. Ayniqsa, isnod zanjiri uzilmagan va har bir roviy ishonchli bo‘lishi uning eng asosiy shartlaridan biri bo‘lgan.

Imom Buxoriyning bu mezonlari nafaqat o‘sha davrda, balki bugungi kungacha hadis ilmining asosiy metodlariga aylangan. Shuning uchun ham uning “Al-Jome’ as-Sahih” asari eng ishonchli hadislari to‘plami sifatida e’tirof etiladi. Bu mavzu ustida ishslash davomida men hadis ilmidagi yondashuvlarning qanchalik aniqlik va mas’uliyat bilan shakllanganini ko‘rib, bu sohaning naqadar muhim va chuqur ekaniga amin bo‘ldim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Imom Zahabiy. Siyar A‘lam an-Nubala’. Bayrut: Muassasat ar-Risala, 1993. 12-jild.



2. Ibn Hajar al-Asqaloni. Nuhbatul Fikar fi Mustalahi Ahlil Asar. Bayrut: Darul Ma‘rifa, 2002.
3. Dr. Muhammad Mustafo al-A‘zamiy. Manhaj al-Imom al-Buxoriy fi Tasnif as-Sahih. Qohira: Maktabat as-Salafiya, 1987.
4. Imom al-Buxoriy. Al-Jome‘as-Sahih. Tahqiq: Muhammad Zuhayr an-Naasir. Bayrut: Dar Tuq an-Najah, 1987.
5. O‘zbekiston Musulmonlari Idorasi. Imom Buxoriy. Toshkent: Movarounnahr nashriyoti, 2001.